

Oriental Journal of Education



THE ROLE OF ENVIRONMENT AND EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION PUPILS

Maftuna Tojiakhmedova

2nd-year PhD researcher

Namangan State Institute of Foreign Languages

maftunayamina2306@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Montessori method, prepared environment, independence within limits, sandpaper letters, metal insets, bells, sound cylinders, color tablets, movable alphabet.

Received: 27.09.25

Accepted: 28.09.25

Published: 29.09.25

Abstract: This article presents a set of exercises aimed at developing the oral speech of preschool children using the Montessori method, highlighting the role of the prepared environment in this process. Maria Montessori's original methodologies were systematized, and a collection of exercises was developed specifically adapted to the age characteristics of preparatory groups. Particular attention is given to the importance of learning through visual and concrete materials. The effectiveness of role-playing games in improving oral speech is especially emphasized: practice has shown that such games not only enhance language skills but also significantly contribute to the development of children's social and communicative competencies. The research results confirm that the integration of a variety of exercises based on the Montessori method into the educational process makes a substantial contribution to the formation of oral speech in a foreign language among children.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA MUHIT VA MASHQLARNI O'RNI

Maftuna Tojiakhmedova

2-bosqich tayanch doktoranti

Namangan davlat chet tillar institute

maftunayamina2306@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Montessori metodi, tayyorlangan muhit, chegaralar ichida mustaqillik, qumli harflar, metal ichmalar, qo'ng'iroqlar, tovushli silindrlar, rangli tabletkalar, harakatlanuvchi alifbo.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti tarbiyalanuvchilarining og'zaki nutqini shakllantirish uchun Montessori metodi orqali foydali mashqlar to'plangan va bu jarayonda muhitning o'rni ko'rsatib berilgan. Maria Montessorining o'ziga xos metodlarini jamlab va aynan tayyorlov guruhlarining yoshlariga moslab ajratilgan holda mashqlar to'plami ishlab chiqilgan, Vissual va aniq buyumlarga tayanib o'rganish uchun muhitning o'rni alohida ko'rsatib o'tilgan. Ayniqsa, ro'lli o'yinlar orqali og'zaki nutqni oshirish samaradorligi ko'rsatib berilgan bo'lib, amaliyot jarayonida obrazli o'yinlar bolalarning nafaqat til ko'nikmalari, balki ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini ham sezilarli darajada oshirganini ko'rsatib bergan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, amaliyot jarayoniga Montessori metodi orqali turli mashqlar jamlanmasini kiritish bolalar og'zaki nutqini chet tilde shakllantirishga kata xissasini qo'shadi.

РОЛЬ СРЕДЫ И УПРАЖНЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ УСТНОЙ РЕЧИ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Мафтуна Тоджияхмедова

Аспирантка 2-го курса

Наманганский государственный институт иностранных языков

maftunayamina2306@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: метод Монтессори, подготовленная среда, самостоятельность в рамках правил, шершавые буквы, металлические вкладыши, колокольчики, звуковые цилиндры, цветные таблички, подвижный алфавит.

Аннотация: В данной статье представлены упражнения по развитию устной речи воспитанников дошкольных образовательных учреждений с использованием метода Монтессори, а также показана роль подготовленной среды в данном процессе. Были обобщены оригинальные методики Марии Монтессори и разработан комплекс упражнений, адаптированных к возрастным особенностям подготовительных групп. Особое внимание уделено значимости среды для обучения на основе наглядных и конкретных предметов. В частности, продемонстрирована эффективность ролевых игр в развитии устной речи: практика показала, что сюжетно-ролевые игры способствуют не только формированию языковых навыков, но и развитию социальных и коммуникативных компетенций детей. Результаты исследования

подтверждают, что внедрение комплекса упражнений на основе метода Монтессори в образовательный процесс значительно способствует формированию устной речи детей на иностранном языке.

Kirish. So‘nggi yillarda bolalarning erta yoshdagi rivojlanishiga oid ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra, aynan 3–7 yosh oralig‘i bola uchun eng sezuvchan va intensiv til o‘zlashtirish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bola atrofdagi tovushlarga, so‘zlarga, ijtimoiy muloqotga yuqori darajada sezgir bo‘lib, yangi tilni tabiiy tarzda o‘zlashtiradi. Mazkur bosqichda til o‘rganishni sun‘iy dars shaklida emas, balki hayotiy faoliyat, sezgi, harakat va muloqot orqali tashkil etish ayni muddao bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, Montessori metodikasi o‘zining tabiiy, bola markazda bo‘lgan va mustaqil o‘rganishga asoslangan yondashuvligi bilan alohida e‘tiborga loyiqdir.

Adabiyotlar tahlili. Montessori mashg‘ulot xonasida til o‘rganish uchun mo‘ljallangan muhit tasodifiy tashkil etilmaydi. Har bir vosita – bu bolaga mustaqil tanlov qilish, faoliyat olib borish va tilni qo‘llash imkoniyatini beradigan pedagogik vosita hisoblanadi. Muhitning xavfsiz, ochiq va estetik jihatdan yoqimli mebel, materiallar va makon joylashadi. Montessori o‘qituvchisi — bu an‘anaviy ma‘nodagi “ma‘ruzachi” emas, balki bolaning ichki rivojlanishini sezgan holda unga yordam beruvchi yo‘naltiruvchidir. U har bir bolaning individual til rivojlanishini kuzatadi, ehtiyojlarini aniqlaydi va shunga mos material yoki faoliyatni taklif etadi.

Maria Montessori o‘z pedagogik qarashlarining asosiy g‘oyasi sifatida tayyorlangan muhitni alohida e‘tirof etadi. Uning fikriga ko‘ra bola tabiatan izlanuvchan va o‘rganishga moyil bo‘ladi. Bu jarayonni samarali kechishi

uchun maxsus tashkil qilingan, erkinlik va mustaqillikka imkon beruvchi muhit zarur. Montessori “tayyorlangan muhit”ni quyidagicha talqin qiladi: “Muhit bolaning o‘zi mustaqil ravishda tajriba o‘tkazishiga ilhomlantiruvchi bo‘lishi kerak”. [1]

Tartib va erkinlikni uyg‘unligini Maria Montessori shunday ta’riflaydi: “Tartib va go‘zallikka boy, chegaralar ichida erkinlik bilan boshqariladigan tayyorlangan muhitda bola o‘zini va atrof-muhitini boshqarishning ustasiga aylanadi. [2]

Montessori metodining namoyon etishda o‘z hayotini bahshida etgan yana bir metodist olim Paula Polk Lillard ta’kidlaganidek, Montessori metodidagi tayyorlangan muhit va maxsus didaktik materiallar bolalarda og‘zaki nutqni shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, harakatlanuvchi alifbo bolaga harf shakllari va tovushlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustaqil kashf qilish imkonini beradi, bu esa nutqiy va savodxonlik ko‘nikmalarining uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi. Shuningdek, Qumli harflar bolani sensor tajribaga tayangan holda harf shaklini ko‘rish, eshitish va sezish orqali o‘rganishga yo‘naltiradi. Lillardning fikricha, bu ko‘p kanalli ta’sir usuli bolalarda tovush-harf tizimini puxta o‘zlashtirishga yordam beradi. Tovushli silindrlar va

Qo'ng'iroqlar tovushlarni farqlash, intonatsiya va talaffuzni aniq shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa va fonetik elementlar og'zaki nutqning ravonligini oshirishda samarali omil hisoblanadi [3]

Og'zaki nutqni shakllantirishda samarali yordam beruvchiyana bir qator mashqlar mavjud bo'lib ulardan moslashtirish o'yinlari va rangli tabletkalar bo'lib, ular bolalarda til vositalari orqali atrof-muhitni tasvirlash, rang, shakl va buyumlar nomlarini aniq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. [4]

Shuningdek, Montessori metodining asosiy mashqlaridan biri bo'lgan uch bosqichli mashq og'zaki nutqni shakllantirishda muhim bosqichlardan xisoblanadi. Aynan yangi so'z va yangi buyumlar aynan uch bosqichli mashqlar orqali o'rgatiladi. Bu yondashuvni Helfrich "pedagogik kuzatuv va shaxsiylashtirilgan yondashuv orqali erkin rivojlanishga yo'l ochish" deb ta'riflaydi. Yani, til o'rgatishda o'qituvchi uch bosqichli darslar (nomlash, anglash, eslash) orqali yangi so'zlarni tanishtiradi. Misol uchun, agar bola "bowl" so'zini yangi o'rganayotgan bo'lsa, birinchi bosqichda o'qituvchi buyumni ko'rsatib nomlaydi: "This is a bowl." Ikkinchi bosqichda bolaning so'zni tanib olishiga imkon yaratadi: "Can you show me the bowl?" Va uchinchi bosqichda bolaga so'zni mustaqil aytish taklif etiladi: "What is this?" O'qituvchi dars berishdan ko'ra, kuzatishga ko'proq vaqt ajratadi. Har bir bolaga kun davomida kamida bir marta individual til materiali taqdim etiladi. Bu metodika bo'yicha olib borilgan tajribalar Montessori o'qituvchisini nafaqat o'rgatuvchi, balki bola bilan tilga oid noverbal signal va mimikalarni ham angelaydigan nozik kuzatuvchi sifatida ko'rsatmoqda [5]

Shuningdek, amaliy hayotiy tajriba orqali tilni o'rganish juda samarali hisoblanadi. Bola kun davomida "Please wash your hands", "Let's sweep the floor", "Can you pour the water?" kabi iboralarni doimiy takrorlaydi. Bular sun'iy tarzda emas, balki tabiiy muloqotda yuz beradi. Masalan, bola suv quyish faoliyatini bajarayotganda, bu amalni ingliz tilida eshitadi, tushunadi va o'zi takrorlaydi. Bu holat Montessori sinfini "tabiiy til muhiti"ga aylantiradi. Yana bir samarali yondashuv bu voqealar ketma-ketligini tuzish orqali hikoya tuzish ko'nikmasini rivojlantirishdir. Bolalar uchun maxsus tayyorlangan kartochkalar asosida ketma-ket tasvirlar yordamida hikoyani izchil bayon qilish o'rgatiladi. Bu faoliyat orqali bola vaqt birikmalarini ("first", "then", "after that", "finally") o'zlashtiradi, gap tuzadi, bog'lovchilardan foydalanadi va o'z fikrini erkin ifodalaydi. [5]

Montessori metodikasida til "fan" sifatida emas, balki bolaning kundalik hayoti va ijtimoiy muloqotining ajralmas bir qismi sifatida ko'riladi. Montessori sinfida til "o'qitilmaydi", balki u bilan yashaladi. Bu — bolaning har bir faoliyatida, har bir harakatida va har bir ijtimoiy o'zaro aloqasida mavjud bo'lgan til muhiti demakdir. Montessori muhitida bola ertalab o'qituvchi bilan salomlashadi, ruxsat so'raydi, yordam taklif qiladi, boshqa bolalar bilan suhbatlashadi, topshiriqlarni so'z orqali muhokama qiladi. Bu jarayonda o'rganilayotgan til — ayniqsa, ingliz tili

— tabiiy kontekstdagi muloqot vositasiga aylanadi. Masalan, 4 yoshli bola amaliy hayot faoliyatini bajarayotgan paytda “Can I help you?”, “Would you like some water?” kabi iboralarni doimiy eshitadi va o‘zi ham ishlatadi. Bunday kontekstda til bola tomonidan qabul qilinadi, chunki bu iboralar ma’noli, kerakli va real ehtiyojga javob beradi. Til, shu ma’noda, Montessori sinfida kommunikativ va funksional asosga ega bo‘ladi. Bu yondashuv zamonaviy metodistlar tomonidan ham keng qo‘llab-quvvatlanmoqda. [6]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ikki xil ko‘rinishda olib borildi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tayyorlov guruhlariga chet til o‘rgatuvchi pedaogoglar orasida so‘rovnoma olib borildi hamda mazkur guruhlardagi bolalar bilan suhbat qilinib ularning og‘zaki nutq darajalari belgilab olindi. Ushbu suhbat Namangan shahar 6-bog‘cha tayyorlov guruhlari, Chortoq tuman 17-bog‘cha tayyorlov guruhlari, To‘raqo‘rg‘on tuman 15-bog‘cha tayyorlov guruhlaridan olindi. So‘rovnoma esa onlayn shaklda yuqoridagi bog‘cha pedagoglaridan va ko‘plab shaharlar pedagoglaridan tashkil topgan telegram guruhida olindi. So‘rovnoma quyidagi yetti qismdan iborat bo‘lib, ular:

1. Amaliyot haqidagi umumiy taassurotlar;
2. Ijtimoiy muhit;
3. Pedagogning mashg‘ulot paytidagi roli;
4. Og‘zaki nutq shakllantirishdaagi qiyinchiliklar;
5. Ota ona bilan pedagoglarning bog‘likligi;
6. Pedagoglarning tavsiyalari;

Olingan ma’lumotlar pedagogik amaliyot dasturlarni tahlil qilish va xalqaro hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari bilan qiyoslanib o‘rganildi

Tahlil va natijalar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida chet til o‘qitish muhim jarayon xisoblanadi. Zero, har bir bola maktabgacha davroidan chet til o‘rganishi siyosiy darajada maqullangan. Tahlillaar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha tashkilotida shu davrga qadar qo‘llab kelingan metodlar an’anaviy bo‘lib, ularda asosan bolalar chet til lug‘atini yodlashga qaratilgan. Bolalar o‘z xis tuyg‘ularini erkin bildiraolmaydilar va muloqotga kirishishda asosan ona tilini qo‘llaydilar.

Tajriba sinovidagi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining amaliyot dasturlarida asosan quyidagi metodik faoliyatlar ko‘zda tutilgan: amaliyot obyektni o‘rganish, kuzatish, metodist-o‘qituvchi ko‘rsatmalarini bajarish, o‘quv va tarbiyaviy jarayonda ishtirok etish, mikrodmashg‘ulotlar tashkil etish.

Bu faoliyatlar ta’lim jarayoniga dastlabki kirish darajasida foydali bo‘lishi mumkin, biroq ular zamonaviy ta’limning talablari – interaktivlik, kommunikativ muloqotni shakllantirish, ijtimoiylashuv, chet tilde o‘z hissiyotlarini bildira olishga mos kelmaydi. Shuningdek, Ro‘lli

o'yinlar, harakatlanuvchi alfavit, qo'ng'iroqlar, pushti minoralar, rangli tabletkalar, tovushli silindrlar hamda bola uchun qulay muhitni mashg'ulot jarayoniga integratsiya qilinmagan.

Xulosa. Olib borilgan tahlil va tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tilni o'rgatish jarayonida Montessori metodini qo'llash bolalarning og'zaki nutqini shakllantirishda sezilarli samaradorlik beradi. Maria Montessorining tayyorlangan muhit, mustaqillik va tabiiy rivojlanishga asoslangan yondashuvi bolalarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslangan pedagogik sharoit yaratadi.

Tajriba natijalari Montessori metodidagi harakatlanuvchi alfavit, qumli harflar, qo'ng'iroqlar, rangli tabletkalar, tovushli silindrlar va moslashtirish o'yinlari kabi didaktik materiallarning integratsiyasi bolaning fonetik, leksik va grammatik ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shuningdek, uch bosqichli mashqlar va ro'lli o'yinlar yordamida til o'rganish tabiiy muloqot jarayoniga aylanishi natijasida bolalarda ijtimoiylashuv, muloqotga kirishish va o'z fikrini erkin ifoda etish qobiliyatlari ancha oshganini isbotladi.

Bundan tashqari, amaliy faoliyatlar — suv quyish, tozalash, ovqatlanish kabi hayotiy vazifalar bilan bog'langan til materiali bolalarga yangi so'z va iboralarni sun'iy yodlashsiz, real kommunikativ vaziyatlarda o'rganish imkoniyatini yaratdi. Bu esa Montessori metodining tilni o'rgatishdagi asosiy ustunligi — tilni bola hayotining ajralmas qismi sifatida o'rgatish tamoyiliga to'la mos keladi.

Shu bois, kelgusida maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyot dasturlariga Montessori metodiga asoslangan tayyorlangan muhitni yaratish, didaktik materiallar va tabiiy muloqotga asoslangan interaktiv mashqlarni kengroq integratsiya qilish tavsiya etiladi. Bu nafaqat og'zaki nutqni rivojlantirish, balki bolalarning ijtimoiy, hissiy va kognitiv rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maria Montessori (1912) The Montessori method
https://www.montessoriseeds.com/uploads/1/2/9/0/129029854/the_montessori_method.pdf?utm_source=chatgpt.com pp34-45
2. Maria Montessori (1948) The Discovery of the Child
https://archive.org/download/in.ernet.dli.2015.110354/2015.110354.The-Discovery-Of-The-Child.pdf?utm_source=chatgpt.com pp170-172
3. Paula Polk Lillardning (1972) Montessori: A Modern Approach pp43-44
4. Angeline Stoll Lillard (2005) Montessori: The science behind the genius pp135-137
5. Shannon Helfrich (2011) Montessori Learning in the 21st century: A guide for parents and teachers pp54-55

6.Camp, Cameron J. “Origins of Montessori Programming for Dementia.”
Nonpharmacological Therapies in Dementia, 2010;1(2):163-174.